



AFFIKSLAR YORDAMIDA YASALGAN OKKAZIONAL SO'ZLAR

Madina Bahriddinova

Samarqand davlat universiteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligidagi affikslar yordamida yasalgan okkazional so'zlar va ularning til taraqqiyotidagi o'rni kabi masalalar yoritilgan. Okkazionalizm hodisasining o'zbek adabiyotida ifodalanishi o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *Okkazionalizm, neologizm, okkazional so'zlar, leksema, affiks.*

Kirish qism: O'zbek tili haqida so'z yurutar ekanmiz eng avvalo, uning aloqa vositasi ekanligini unutmasligim lozim. Chunki til kishilar tomonidan bir-biri bilan xabar almashish, ma'lumot yetkazish vazifasini o'taydi. Til jamiyatda ijtimoiy hodisa sifatida tabiiy hodisalardan ajratib turadi. Til avloddan avlodga o'tadigan irsiy hodisa emas, balki jamiyat rivojlanishidagi taraqqiyot mahsuli. Tilning paydo bo'lishi hamda taraqqiy topishi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Jamiyat hayotida til qay darajada muhim bo'lsa, o'zbek tili ham muhim ahamiyatga ega. O'zbek tili turkiy tillar oilasiga kiruvchi mavqei va obro'yi jihatdan jahon tillarida oldingi o'rinlarni band qiluvchi tillardan sanaladi. Bu esa o'zbek tilida so'zlarning omonim, sinonim, shakldoshlik xususiyatlari yuzasidan kelib chiqadi. Bevosita okkazional so'zlar ham o'zbek tili taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism: Okkazionalizm hodisasi ma'lum bir muallif tomonidan yaratilgan, matn ichida rejalashadigan, noodatiy xususiyatga ega, muallif o'z maqsadini ifoda etish uchun yaratgan, belgilangan normalarga bo'ysunmaydigan nutqiy hodisa sanaladi. A.G.Likov okkazional so'zlarga "O'zida tasodifiylik, bir marta qo'llanishlik kabi xususiyatlarni mujassam etgan nutqiy birliklardir" degan ta'rifni beradi. Haqiqatdan ham, okkazionalizm hodisasi shunday xususiyatga ega va u bu jihatidan neologizmlarga ham o'xshab ketadi. Tilshunosligimizda okkazional so'zlar asosan ijodkorlar tomonidan yaratiladi. Ular aynan matn momentida, matndagi tasvirni kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Bunday terminlar adabiy lug'atlarga kiritilmaydi negaki ular faqat nutq jarayonida vaziyat nuqtayi nazaridan ishlatiladi. Okkazional so'zlar so'z yasash yoki birikmalar orqali ifodalandi. Asosan affikslar yordamida yaratiladi.

Misol qilib Ulug'bek Hamdamning "Yo'qotish" she'rini oladigan bo'lsak, unda ham affiks yordami bilan yasalgan faqat nutq sharoitidan kelib chiqqan so'zlar mavjud:

Cheksiz **zulmatgoh**da mash'aldek yonding,
Yo'lchi yulduz bo'lding ko'zlarimga va...

Bu ne ko'rgulikdir- quyoshdek so'nding!..





Faryod toshib chiqdi soʻzlarimga va:²¹

Yana bir shoirimiz Rauf Parfi esa oʻz sheʼrlarida okkazional soʻzlardan nihoyatda unumli foydalangan. Uning oʻzbek tilidagi noodatiy okkazional soʻzlardan keng foydalanganini mana bu toʻrtlikda koʻrishimiz mumkin:

Qaydasan marmar oxur,

Har tarafda urho-ur.

Etimizni yedik biz,

Ketimizni yedik biz.

Tuvakxoʻrlar, qingʻirlar,-

Oʻtgan-ketgan mingʻirlar.

Okkazionalizmlar har bir ijodkorning uslubiga xos boʻladi. Ular tomonidan aynan nutq sharoitida yaratiladi. Okkazional soʻzlar asosan tilimizda mavjud boʻlgan affiksalar yordamida yaratiladi. bu hodisa uslubiyat bilan bogʻliq boʻlgani uchun badiiy ijodda keng qoʻllaniladi.

Jangari **matbaachi** dermishlar sani,

Oʻzingga qulmishsan, oʻzingga xoqon.

Ozod soʻz- haqiqat, Haqning maxzani,

Oxir parchalanur bu gʻul, bu yoʻgʻon.

Ushbu sheʼriy parchadagi “matbaachi” soʻzi nutqiy yasama okkazional soʻz boʻlib, ijodkorning badiiy mehnati bilan nafaqat oʻzbek adabiyoti, balki oʻzbek tilidagi nutqiy hodisalar rivojiga ham oʻz hissasini qoʻshadi. Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, okkazionalizm hodisasi tarixan barqaror birikma boʻlmasada yangi asr tilshunosligining ajralmas qismi. Chunki nutqdagi bu soʻzlar inson eʼtiborini tortib, unga estetik lazzat beruvchi boʻlib xizmat qilmoqda. Bu kabi nutq jarayonida hosil boʻladigan individual birliklar lugʻat birliklarining koʻpayishiga hamda oʻzbek tiling boyishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S. Sultonsaidov, Oʻ. Sharipov. “Oʻzbek tili stilistikasi” 2009.
2. O. Toʻxtasinova. Leksik okkazionalizmlar va uning yondosh hodisalarga munosabati. 2022.
3. Q. Sapayev. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Toshkent. 2009.
4. M. Qurbonova. Okkazionalizm va Neologizm hodisasi. “Ilm-fan muammolari yosh tadqiqotchilar talqinida” mavzusidagi 6-sonli respublika ilmiy-onlayn konferensiya toʻplami.
5. U. Hamdam. “Seni kutdim”. Toshkent. 2007.

²¹ Ulugʻbek Hamdam. “Seni kutdim” Toshkent. 2007. 25-bet.

